

DORIVOR O'SIMLIKLARNING MIKRODIAGNOSTIK BELGILARI VA FARMATSEVTIK AHAMIYATINI O'RGANISH

A.X. Xo'janazarova¹

F.H. Xo'janazarova²

S.N. Qurbonova³

Toshkent farmatsevtika universiteti¹,

Turon universiteti²,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti³

e-mail: azizaxojanazarova1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21215176>

Dolzarbli. Dorivor o'simliklar zamonaviy farmatsevtika va tibbiyotda biologik faol moddalar manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda xalq tabobati va farmatsevtik amaliyotda keng qo'llaniladigan zanjabil (*Zingiber officinale*), mavrak (*Salvia officinalis*) hamda moychechak (*Matricaria chamomilla*) o'simliklarining mikrobiagnostik belgilarini o'rganish asosida ularning farmatsevtik istiqbollari tahlil qilindi. Ushbu o'simliklar flavonoidlar, efir moylari, fenol birikmalar va antioksidant komponentlarga boy bo'lib, yallig'lanishga qarshi, antiseptik va immunomodulyatorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Tadqiqot maqsadi. Zanjabil, mavrak va moychechak o'simliklarining anatomik hamda mikrobiagnostik belgilarini aniqlash, ularni standartlashtirish va farmatsevtik preparatlar ishlab chiqarishdagi ahamiyatini ilmiy asoslash.

Material va metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida o'simliklarning vegetatsiya davrida yig'ilgan barg va yer ustki qismlari tanlab olindi. Namunalar morfologik identifikatsiyadan o'tkazildi va anatomik tuzilishini saqlash maqsadida 70% li etil spirti, glitserin hamda distillangan suv aralashmasidan iborat fiksatorga joylashtirildi. Ko'ndalang kesimlar ustara yordamida tayyorlandi. Epidermis preparatlari 5–10% li KOH eritmasida ishlov berildi. To'qimalarni differensial ajratish uchun floroglyutsin va HCl eritmalaridan foydalanildi.

Natijalar. O'tkazilgan anatomik tahlillar natijasida barcha o'simliklarda dorsiventral barg tuzilishi kuzatildi. Zanjabil bargida o'tkazuvchi bog'lamlarning parallel joylashuvi va efir moy saqlovchi hujayralar aniqlangan bo'lsa, mavrak bargida ko'p hujayrali bezli tukchalar va efir moy bezchalari yaxshi rivojlanganligi kuzatildi. Moychechakda esa mezofillning g'ovak tuzilishi va sekretor yo'llarning mavjudligi asosiy diagnostik belgi sifatida qayd etildi. Og'izchalar asosan pastki epidermisda joylashgan bo'lib, gipostomatik tipga mansubligi aniqlandi. Farmakognostik tahlillarda tukchalar, efir moy bezchalari va o'tkazuvchi bog'lamlarning joylashuvi asosiy identifikatsion mezon sifatida xizmat qilishi belgilandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida zanjabil, mavrak va moychechak o'simliklarining mikrobiagnostik belgilari aniqlandi. Ularning anatomik tuzilishi va biologik faol moddalarga boyligi ushbu o'simliklarning farmatsevtik xomashyo sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Ayniqsa, efir moylari, flavonoidlar va fenol birikmalari asosida yallig'lanishga qarshi, antioksidant va antiseptik fitopreparatlar ishlab chiqarish istiqbollari yuqori ekanligi qayd etildi.